
Bayram arafasida polvonobodliklar yangi mahalla binosiga ega bo'lishdi

Istiqlolimizning 31 yillik to'yi arafasida Rishton tumanida davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida qurib bitkazilgan Polvonobod mahalla fuqarolar yig'ini binosi foydalanishga topshirildi.

Fuqarolar yig'ini xodimlari va mahalla aholisi uchun munosib sharoit va qulayliklarga ega bo'lgan yangi bino ushbu mahallada istiqomat qiluvchi 2 ming 300 dan ziyod oilaga ajoyib bayram tuhfasini bo'ldi.

Yangi binoning foydalanishga topshirilishi munosabati bilan tashkillangan tantanali marosimda Vidoyat Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i Bahodirjon Holiqov, tuman hokimi Sufhonjon Soliev, sektor rahbarlari, tuman hokimi o'rinbosarlari, mahalla faollari, jamoatchilik vakillari va nuroniylar ishtirok etishdi.

Tadbirda so'z olganlar mahalla ahlini eng aziz bayramimiz va yangi binoning foydalanishga topshirilishi bilan samimiy qutlab mamlakatimizda mahalla instituti faoliyatini yanada rivojlantirish, uni eng xalqchil tuzilmaga aylantirish borasida amalga oshirilayotgan salmoqli ishlar haqida to'xtalib o'tishdi.

Mahalla faollari, fidoiylarning yurt ravnaqiga qo'shayotgan hissalarini, mahalla hayotidagi daxldorliklari e'tirof etildi. Qayd etilishicha, mahalla beshligi hamda hudud aholisi uchun munosib sharoit yaratilgan binoning qurilishiga mahalliy tadbirkor Xolmirza Mamatqulov tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida 230 million so'm mablag' yo'naltirildi. Kelgusida ham mahalla ahli va yoshlarga xizmat qiladigan yana bir qator qo'shimcha loyihalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Tadbir davomida tashkil etilgan bayram tadbirda kuy-qo'shiq va raqslar ko'ngillarga zavq bag'ishladi.

2022-08-29 10:31:14